

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
«MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA METODIKASI» kafedrası

«Himoya qilishga ruxsat beraman»
Fakultet dekani

«____» _____ 201__yil

5141700-«Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti» yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

«MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KUN TARTIBIGA RIOYA
QILISH MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH» mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Xolmurodova Kamola

Ishni himoyaga tavsiya

etaman ilmiy raxbar: Dots.M.Fayziyeva

BMI «Maktabgacha ta'lim nazariyasi va
metodikasi» kafedrasining yig'ilishining
qarori bilan (Qaror № _____ 2011
yil) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra _____ mudiri

v/b: _____ G.Qo'shaqova

JIZZAX – 2011

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti “Pedagogika – psixologiya” fakul’teti “Maktabgacha ta’lim va bolalar sporti” yo’nalishi bitiruvchi talabasi Xolmurodova Kamolaning «Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibiga rioya qilish malakalarni shakllantirish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan uning maktabgacha ta’lim bosqichiga e’tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha yoshdagi ta’lim muassasalariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish mamalakatimiz ilmiy texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlar yo’nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi mumkin. Zero, ta’kidlab o’tganimizdek, uzluksiz ta’lim bosqichlarining samarali ishlashi ma’lum darajada maktabgacha ta’lim sifatiga bog’liq bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo’ladi.

SHu sababli talaba Xolmurodova Kamolaning « Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibiga rioya qilish malakalarni shakllantirish » mavzusi bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

BMIning I bobida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim –tarbiya berishning pedagogik asoslari ochib berilgan.BMIning II bobida oilada bolalarni ota –onalar shaxsiy namunasi vositasida tarbiyalash mazmuni manaviy barkamol insonni shakllantirishda oilaning o’rni va o’zbek oilasida manaviy barkamol insonni tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning o’ziga xos xususiyati yoritilgan

Bitiruv malakaviy ishi mazmunan tugallangan va DAK talablariga javob beradi talaba Xolmurodova Kamolaning « Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibiga rioya qilish malakalarni shakllantirish » mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yaxshi baholandi va himoyaga tavsiya etildi.

“Maktabgacha ta’lim nazariyasi va

metodikasi” kafedra katta o`qituvchisi:

G.Qo’shaqova

**A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti “Pedagogika – psixologiya”
fakul’teti “Maktabgacha ta’lim va bolalar sporti” yo’nalishi bitiruvchi talabasi
Xolmurodova Kamolaning «Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibiga
rioya qilish malakalarni shakllantirish» mavzusidagi
bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbarning**

XULOSASI

Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi ta’lim –tarbiya jarayonida ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan tarbiyachilar bilan to’ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohatlarning muhim yo’nalishlaridan biridir.

Talaba Xolmurodova Kamolaning tanlagan mavzusi aynan ana shu vazifalarni to’liq ochib berishga qaratilgan.

BMIning I bobida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim –tarbiya berishning pedagogik asoslari ochib berilgan.

BMIning II bobida maktabgacha yoshdagi bolani rivojlanishida kun tartibiga rioya qilish mazmuni ,maktabgacha yoshdagi bolalar kun tartibining mazmuni va rioya qilish usullari yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishi mazmunan tugallangan va DAK talablariga javob beradi Xolmurodova Kamolaning “Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibiga rioya qilish malakalarni shakllantirish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yaxshi baholandi va himoyaga tavsiya etildi.

Ilmiy raxbar:

dots.M.Fayziyeva

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti “Pedagogika – psixologiya” fakul’teti “Maktabgacha ta’lim va bolalar sporti” yo’nalishi bitiruvchi talabasi Xolmurodova Kamolaning «Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibiga rioya qilish malakalarni shakllantirish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so`ng ta'lim –tarbiya jarayonini takomillashtirish, bu jarayonning samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan ta'lim va kasb hunar turlarini ongli ravishda tiklash va huquqiy psixologik, pedagogik, sharoitlarini yaratishni, ko`zda tutadi. Shu sababli talaba Xolmurodova Kamolaning tanlagan «Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibiga rioya qilish malakalarni shakllantirish» BMI mavzusi bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

BMIning I bobida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim –tarbiya berishning pedagogik asoslari ochib berilgan. BMIning II bobida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishida kun tartibiga rioya qilish mazmuni, maktabgacha yoshdagi bolalar kun tartibining mazmuni va rioya qilish usullari yoritilgan

Bitiruv malakaviy ishi mazmunan tugallangan va DAK talablariga javob beradi Xolmurodova Kamolaning «Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibiga rioya qilish malakalarni shakllantirish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yaxshi baholandi va himoyaga tavsiya etildi.

Jizzax shahar №3- sonli

“G’uncha” MTM mudirasi:

G.Turapova

MUNDARIJA

KIRISH

1.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM –TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

- 1.1. Sharq mutafakkirlari va pedagog olimlarning bola _____
tarbiyasito'g'risidagi qarashlari.....
- 1.2. Maktabgacha yoshdagi bolani rivojlanishida kun tartibining
ahamiyati..... _____

2.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANI RIVOJLANISHIDA KUN TARTIBIGA RIOYA QILISH MAZMUNI

- 2.1. Maktabgacha yoshdagi bolalar kun tartibining mazmuni va
rioya qilish usullari..... _____
- 2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kun tartibiga rioya qilish
malakalarini o'stirishning semaradorligini oshiruvchi tajriba _____
ishlari.....

Umumiy xulosa _____

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..... _____

Ilova..... _____

Kirish

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim – tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan tarbiyachilar bilan to'ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlarning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan uning maktabgacha ta'lim bosqichiga e'tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha yoshdagi ta'lim muassasalariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish mamalakatimiz ilmiy texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlar yo'nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi mumkin. Zero, ta'kidlab o'tganimizdek, uzluksiz ta'lim bosqichlarining samarali ishlashi ma'lum darajasida maktabgacha ta'lim sifata bog'liq bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo'ladi. uncha to'g'ri mazmun va

yo'nalish berish pedagogika fani, ta'lim amaliyotining dolzarb muammosidir.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftda 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash huquqi beriladi.

6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanish - bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'rik vazifasini o'tashini, oila yoki maktabgacha ta'lim muassasadagi ta'lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munsoabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqardi. Shuning uchun bolani yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash muammolani ijtimoiy –siyosiy ahamiyatga egadir. Shu bois, pedagogika nazariyasi va amaliyotida bu yo'nalishda bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Chunonchi oila sharoitida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash muammosi har doim dolzarb bo'lib qolmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolani maktabga tayyorlash muammolari – G.Yusupova, M.Sh.Rasulova, G.Jalolova, N.U.Bikboyeva, T.Charova, K.M.Mahkamjonov, chet el olimlaridan Ye.T.Nedonikina, A.V.Nikolsnaya, X.Klinton, L.A.Venlerlarning tadqiqotlarida tatqiqi etilgan.

Tadqiqotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, maktabgacha yoshdagi bolani maktabga tayyorlash muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo bolani maktabga tayyorlash muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va rioya qilish muammosi ilmiy metodik jihatdan keng qamroqli tahlil va tadqiq etilmagan. Bu hol 5 -7 yoshli bolalarning ma'naviy va amaliyo faoliyatga salbiy ta'sir etadi. Bu esa muammoning dolzarbligini ko'rsatadi. Aka shu muammoning nazariy va amaliy jihatdan o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqot mavzusini "Maktabgacha yoshdagi bolalarda kun tartibiga rioya qilish malakalarini o'stirish" deb belgiladik.

Tadqiqot maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va rioya qilish usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va ularga ota -onalar

tomonidan rioya qilinishi pedagogik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash.

2. Maktabgacha yoshdagi bolani maktabga tayyorlashda kun tartibining mazmunini ishlab chiqish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talabalar va rioya qilish usullarini ishlab chiqish va tajribada tekshirish.

4. MTM tarbiyachilari va ota -onalar uchun bolani maktabga tayyorlashda kun tartibi va unga rioya qilish usullari bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti: maktabgacha, yoshdagi bolani maktabga tayyorlashda kun tartibi va unga rioya qilish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: maktabgacha yoshdagi bolalarning kun tartibining mazmuni.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarda kun tartibiga rioya qilish maklaalarini o'stirish izchillik tarzda olib borilsa;

- maktabgacha yoshdagi bolalarda kun tartibiga rioya qilish malakalarini o‘stirish jarayoning mazmuni maktabgacha ta‘limning maqsad va vazifalariga muvofiq tarzda tanlansa;

- maktabgacha yoshdagi bolalarda kun tartibiga rioya qilish malakalarini o‘stirish usullarini to‘g‘ri tanlab foydalanilsa;

- maktabgacha yoshdagi bolani kun tartibi ilmiy –nazariy va metodik jihatdan asosli tarzda tashkil etilsa, uning maktabga tayyorlash samaradorligi oshadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan metodlar:

- tarixiy, falsafiy, ma‘naviy, psixologik, pedagogik adabiyotlarni ilmiy nazariy jihatdan o‘rganish va tahlil qilish, maktabgacha ta‘lim muassasalarining me‘yoriy hujjatlari, o‘quv metodik qo‘llanmalarini o‘rganish,

- kuzatish,

- suhbat,

- testlar ,

- matematik –statistik tahlil asosida olingan natijalarni umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari:

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning o'zbek xalqi tarixi ma'naviy merosini o'rganilsa, hamda ta'lim-tarbiya sohasiga, milliy g'oya va milliy mafkuraga oid asarlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, "kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Sharq mutafakkirlarining oilada bola tarbiyasi borasidagi falsafiy, ta'limiy axloqiy qarashlari, mavzuga tegishli ilmiy pedagogik, metodik manbalarni tashkil etadi.

Tadqiqot bosqichlari: tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda mavzuga oid falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlar o'rganiladi; ularning mazmuni tahlil qilinadi, maktabgacha yoshdagi bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va rioya qilishning mavjud holati taxlil etildi; asosiy nazariy qarashlar umumlashtirildi, tajriba -sinov ishlarini tashkil etish uchun dastlabki materiallar to'plandi.

Ikkinchi bosqichda tajriba – sinov maydonlari aniqlanadi; oilada bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va rioya qilish usullariga oid tavsiyalar ishlab chiqildi; MTM tarbiyachilari va ota –onalar uchun metodik tavsiyalar hamda mashg'ulot ishlanmalari tayyorlandi, keng ko'lamda tajriba ishlari amalga oshirildi, tajriba –sinov ishlarining natijalariga ko'ra shakllanganlik darajasi samaradorligi baholab borildi.

Uchinchi bosqichda maktabgacha yoshdagi bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va rioya qilishning tajribaga qadar va tajribadan keyingi holati o'zaro qiyosiy o'rganildi: yakuniy natijalar matematik –statistik metod yordamida qayta taxlil etildi; tadqiqotning borishi, unda ilgari surilgan nazariy va amaliy qarashlar asosida umumiy xulosalarga kelindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- MTM tarbiyachilari va ota –onalar uchun oilada bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va rioya qilish usullarining nazariy asoslari tavsiya etildi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi: kirish, ikki bob, to'rtta fasl, xulosa va tavsiyalar, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida iborat.

Tadqiqotning tuzilishi: Kirish, 2bob, 4ta paragraf xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

1.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARIGA TA'LIM TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

1.1. Sharq mutafakkirlari va pedagog olimlarning bola tarbiyasi to'g'risidagi qarashlari.

Sharq mutafakkirlarining merosida ta'lim tarbiya masalalari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berganlar. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida oilada bola tarbiyasi masalalari va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Abu Nasr Farobiyning fikricha bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog'i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo'lmog'i lozim degan xulosaga kelgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berish masalalari Abu Ali ibn Sino merosida yoritilganini ko'rishimiz mumkin. Beruniy ota - onalarning bolalari bilan birga harakat qilishlari,

turli o'yinlar uyushtirishlari, ular bilan o'zaro suhbatlar o'tkazishlari maqsadga muvofiq deb maslahat beradi. Beruniy tarbiyaning maqsadi va vazifalari haqidagi, shaxsning rivojlanish to'g'risidagi fikrlarining zahirida insonparvarlik g'oyasi yotadi. U har bir ota -ona o'z farzandlariga ana shu g'oyani singdirishi zarur degan xulosaga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini muhim uyushtirish, ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota -onalar o'z farzandlariga o'qtirishlari lozim. Bola tarbiyasi masalalari bo'yicha Abu Ali ibn Sino "Tadbir almanozil" nomli asarini yozgan. Unda olim ota -onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritilgan. Asarda oilada onaning vazifasi va burchiga, oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota -onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va xunarga o'rgatish borasida muxim fikrlar bayon etadi.

Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalarga keng o'rin berilgan. Oilada farzand tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy

vositasi uning manaviy olamida etiqodni shakllantirish deb xisoblagan edi olim.

Yusuf Xos Xojib "Qtudg'u bilig" asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. Ota -onalar nazoratda bo'lgan bolaning ma'suliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida ota -onaning mavqeyi alohida ahamiyatga egadir. Ular tanlagan to'g'ri yo'l farzandlarining kelajakni, kamoloti uchun psixologiyasida muhimdir. Mirzo ulug'bekning qarashlarida bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rin tutadi. Kaykovus "Qobusnoma" pandnomasida o'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini iishlasang, sen ham ota -ona haqida shunday bo'lg'il deb yoshlarni ota -onasini hurmat qilishga e'zozlashga, mehr -oqibatli bo'lishga da'vat etadi. Bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir masalasi buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rin egallaydi. U o'zining qator asarlarida ta'lim - tarbiya masalalari umuminsoniyg'oya ekanligini ta'kidlaydi.

Ya.A.Komenskiy o'zining "Onalar maktabi" kitobini maktabga tayyorlash bobida, shunday yozadi, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Komenskiy ota - onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

1. Bolalarda maktabga borganda o'z tengdoshlari bilan o'qigan va o'ynagan xursandchilik hissini tug'dirish;

2. Bolalarni maktabdagi ta'limning mohiyatini tushuntirish, maktabdagi faoliyat turlari bilan tunishtirish;

3. Bolalar bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Ta'lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo'lishi ma'lum darajada nasliy omillar bilan ham bog'liqdir. Bolalar o'z temperamenti xususiyatlariga ko'ra ham bir -birlaridan ajralib turadilar:

- xushchaqchaq, sergap, quvnoq, xayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar sangvennik tipreramentga mansub;

- qo'shimcha noxush kayfiyatda yuradigan, ta'sirchan, kamgan, sust bolalar –melanxolik temperamentga kiradilar;
- xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar –flegmatik;
- jaxldor, betoqat, serzarda, xarakatchan bolalar –xolerik hisoblanadilar.

Bolalar kattalarning yordamiga muxto bo'lishiga ham qarab bir –birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bolalar biror xatti- harakatni bajarishni bir necha marta ko'rsatish, tushuntirish kerak. Bolalar o'zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir –birlaridan ajralib turadilar. Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi keng va mukammal bo'lib rivojlangan bo'lishi darkor. Bolalarga qanchalik yaxshi bilim bersak, o'ylaymizki ular kelajakda Vatanga sadoqat ruhida, yetuk inson bo'lib yetishadilar. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his –tuyg'ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qullasa, yaxshi xulq namunalarini o'rgatish ancha oson kechadi.

1.2. Maktabgacha yoshdagi bolani rivojlanishida kun tartibining ahamiyati

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim -tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari" orqali nazorat qilinadi. Davlat talablaridan maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim -tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar berilgan bo'lib u davlat xujjati sifatida e'tirof etiladi.

Bolarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish "Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash" tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi.

"Ta'lim to'g'risida" gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da mamlakatning ijtimoiy -iqtisodiy taraqqiyotini ta'limning asosiy omili bo'lgan kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berilgan sog'lom avlodni

tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yo'nalishidir.

Davlat talablari asosida tuzilgan "Bolajon" tayanch dasturiga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tarbiyachilari, hamda o'zlari uchun turli sohalar bo'yicha dasturlar, qo'llanmalar, tavsiyalar va jismonan rivojlantirishga yordam beradigan turli tuman o'yinlar va ta'lim tarbiya metodi yoritiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim - tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi. Bolani maktabga tayyorlashda oilani o'rne juda kattadir. Bola tarbiyasida oilaning barcha a'zolaridan bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun yuksak ma'suliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir.

Bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama jumladan ma'naviy axloqiy, aqliy

estetik, jismonan va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Ma'naviy tarbiyani bolaga o'tmishda Vatan ravnaqi, el –yurt tinchligi va faravonligi yo'lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, mustaqillik, qadriyat va an'analarimizni o'rgatish orqali singdirish mumkin.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadigan, boshqa hech qaysi tarbiya ob'kti oiladagidek yuqori natija bermaydi.

Kelajak avlodga estetik tarbiya berishda ham oilaning muhim o'rne bor. Oila davrasida qo'shiqlar kulanishi, biror ertak yoki asarni oila davriasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va tahlil qilish va hokazolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jihatlardir.

Ota –onalar voyaga yetayotgan farzandlarining jismoniy barkamolligiga o'ta ma'suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badan tarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vataminlashgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish, kun tartibiga rioya

qilish, vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur.

Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saramjom – sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir. Bola hayotining kun tartibi, odatda sog'lom bola kasalmand va zaif bolaga nisbatan maktab kun tartibiga va butun dars davomida o'zida jo'sh o'rib turgan g'ayratlarini tiyib jim o'tirishga tezroq ko'rinadi. Bolani maktab kun tartibiga tayyorlashda, uning sog'ligini mustahkamlashda ertalab ma'lum vaqtda o'rindan turish, ovqatlanish va uyquga yotishga aniq rioya qilinishi kerak.

Har bir oila mehnat faoliyatining harakteri, maishiy marosimi, bolalarning soni va shu kabilarga o'z yashash sharoitini bolalarning soni va shu kabilarga o'z yashash tartibini o'rnatadi. Biroq bir narsani, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolaning nonushtasi va tushligi o'rtasidagi oraliq 4 soatdan oshmasligini, tushlik vak kechki ovqat o'rtasidagi oraliq –bir oz kattaroq (6 – 7

soat), buning orasida yengil ovqatlanish kechki choy bo'lishi kerakligini unutmaslik kerak. Bolaning bir sutkadagi uyquasi taxminan 11 soatni tashkil qilishi kerak. Bola tushlikdan so'ng 1 -1.5 soat dam olishga odatlansin. Kechqurun u doimo bir vaqtda ya'ni 9 dan kechikmay uxlagani yotsin. Bola miriqib uxlasin desangiz, quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim: bola uxlaydigan xonani yaxshilab shamollatish; bolani uxlashga yotishdan oldin tishini tozalashga, yuz-qo'lini, oyog'ini yuvishga odatlantirish bolaga o'rinda nonushta qilishga aslo yo'l qo'ymaslik.

Bolaning me'yorida rivojlanish uchun u toza xavoda ko'p harakat qilish kerak. Bola ochiq havoda qish oylarida 4 soatdan kam bo'lmasligi, yozda deyarli butun kunni ochiq havoda o'tkazish lozim.

Bolaning kun tartibiga amal qilishi uchun asosan qat'iy nazorat lozim. Bola kun tartibini bajarashi majburiylikiga va hech qanday va iltimoslar, ma'lum vaqtda ovqatlanmaslik hamda o'ynamaslikka sabab bo'la olmasligiga ko'nikishi kerak. Shu bilan birga kun tartibining zarurligi

va uning foydasini doimo tushuntirib borish lozim. Masalan:

- ertalabki badantarbiya mashqlarini yaxshi bajarding, endi kun bo'yi tetik yurasan;

- barakalla, gullarni tozalab yaxshi qilibsan menga ancha yordaming tegdi;

- o'z vaqtida ovqatlansak, piyoz o'sagan hamda kasalga chalinmaysan;

kun tartibining qimmat bola faoliyatining har xil turlarining almashinib turishini ta'minlashdir, bu esa yosh o'suvchi organizmni char chashdan saqlaydi, bolaning har tomonlama kamol topishiga imkon beradi. Masalan: bola rasm solishga qiziqib ketib, stoldan 40 minut davomida turmadi, lekin u faol harakat qilishi, chopishi kerak. Shuning uchun u o'ynab bo'lganidan keyingina unga tinch o'yin yoki mashg'ulotni tavsiya qilish mumkin. Bola shunday tartibga rioya qilsa, u qay darajada bo'lmasin asta - sekin o'z faoliyatini boshqarishga odatlanadi, bu uni kundalik va maktab kun tartibining asosiy

qoidalariga osongina ko'nikishda katta ahamiyatga egadir.

5 -6 yoshli bolalar bilan ishlaydigan bog'cha tarbiyachilar so'rovlari shuni ko'sratdiki, ko'pchilik bolaning maktabga tayyorlashda jismoniy va aqliy rivojlanishni afzal qo'yishmoqda. Ta'lim tarbiyaviy -ishni bolaning tafakkuri, nutqi va bilim jarayonlarini shakllantirishga yo'naltirilib, pedagoglar bolani tabiat va jamoat to'g'risida asosiy bilimlar bilan boyitishadi.

Qanday qilib olimlar maktabgacha tayyorgarlikni aniqlashadi? Pedagogik va psixologik adabiyotlarda bolaning ta'lim va tarbyai jarayoniga qirib, uning mazmuni muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishga yo'l qo'yadigan shaxsning umumiy rivojlanganligi deb ko'rsatilgan, aqliy va estetik rivojlanishida egallashi kerak bo'lgan sifat va jihatlarning yaxlit bir sistemasi deb ko'rsatilgan.

Maktabgacha tayyorgarlik darajasini bolaning aqliy, jismoniy vazifalarni bajara oladigan butun organizm va asab sistemasining ma'lum yetuklik saviyasini aniqlaydi. Shu bilan bir qatorda tevarak atrof haqida olingan oddiy bilimlar

xulqning ijtimoiy va axloq –irodaviy sifatlarini shakllanish darajasi katta ahamiyatga ega.

7 yosh – bu bola yangi sharotiga tez o'rganadigan va o'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Ya.A.Komenskiy bolaning yettinchi yili –bu bekorchilikda buzilib kengmaslik uchun maktabda o'qishni boshlaydigan vaqt hisoblangan. Bolani ona maktabida 5 -6 yil ta'lim –tarbiya olishini, u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan.

Bolaning yoshi (7 yosh) mezonidan tashqari, uni sog'ligini umumiy holati va asosiy antrometrik ko'rsatkichlari jismoniy tayyorgarligini belgilashadi. Bunda bo'yo (7 yoshga 110 smdan kam bo'lmasligi kerak) vazn (20kg), ko'krak aylanasi (nafas chiqqanda 55 smdan kam bo'lmasligi kerak), tanadagi o'zgarishlari suyaklarni o'sishi. Bola mustaqil o'zi kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarni toza va tartibli sayalashni o'rganishi kerak. Bola kattalar mehnatini muhimligini tushunishi va hurmat qilish kerak.

Bog'cha tarbiyachilari har bir bolani maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik

va texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lishi kerak, bunda ular "maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiyachiga qo'yiladigan davlat talablari" talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi. Ammo ba'zi oila va bog'chada maktabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o'tishadi va mutaxassis haqida xulosa chiqaradi. Bolaning maktabga tayyormaslik xususiyatlaridan – bu o'yin qarorligi mustaqil bo'la olmasligi va ijtimoiy rivojlanishining past darajasidir.

Tuman psixologik –pedagogik konsultatsiyalarida bolaning maktabga tayyorgarligini har tomonlama aniqlashadi. Ular ta'lim –tarbiyadagi profilaktik va korreksion usullarni tavsiya etadilar.

Eng tanilgan va keng tarqalgan psixologik diagnostika vositalari:

- A.Kernning maktabga tayyorgarlik testlari.

- A.Effektning "Reversiv test".
- Maktabga tayyorgarlikni tekshiradigan Topningen tekshiruvi.

Testlarni mazmun jihatdan 2 guruhga bo'lish mumkin: o'qish jarayonida ishtirok etadigan alohida psixologik tomonlarni shakllangan darajasini aniqlaydigan testlar; maktabga umumiy tayyorgarlikni tekshiradigan testlar.

Konsultasiya xodimlari bolani tekshiruvini ota-onalar oldida o'tkazadilar. So'ngra tekshiruvlar natijalari asosida qo'yidagi choralarni maslahat beradilar:

- a) umum ta'lim maktabning 1 -sinfga yozish;
- b) o'qishni 1 yilga qoldirish;
- v) bosani bog'chaga yoki maktab qoshidagi maxsus sinfga yozdirish;
- g) bolani maxsus maktabga yozdirish.

Bolani qachon va qancha tayyorlash kerak? Deganda kattalar orasida ota -ona va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1 sinfga bir yil qolganda tayyorlashni kuchaytirish kerak.

Maktab xayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bog'cha tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga binoan shuni amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon ota -onalar bolalarni maktabga qanday tayyorlashmoqda. Biz shuni ko'rsatib utgan edikki, ota -onalarning maktabda yaxshi o'qishning shartlaridan biri -shaxsning umumiy rivojlanishi deb hisoblanadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishini eng asosiy deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, xotirasini rivojlantirishga xarakat qiladilar.

2.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANI RIVOJLANISHIDA KUN TARTIBIGA RIOYA QILISH MAZMUNI.

2.1. Maktabgacha yoshdagi bolalar kun tartibining mazmuni va rioya qilish usullari.

7 yoshli bolalarni maktab faoliyatidagi kun tartibi juda murakkab vazifa bo'lib, ayrim ota – onalar bu ma'suliyatni bola hayoti va maktabgacha yoshdan o'yin davridan muhimligini his qilmaydi.

Bolalar uchun to'g'ri tashkil etilgan bir kunlik kun tartibini uni nafaqat bilimiga balki sog'lig'ini mustahkamlashga yordam beradi. Kun tartibini birdaniga o'zgarishi bola ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota – onalarga kun tartibini to'g'ri tashkil qilish uchun birinchi jadval yordam beradi. Kun tartibi umumiy ko'rsatkich asosida olinib: kunduzi va kechki uyqu, gigiyenik tayyorgarlik, yetarlicha toza havodagi faol harakatdan turli mashg'ulotlarni olish bu navbatma navbat olmashtirish va ovqat rasionidan iborat.

Uyqudan oldin asosan kechki uyqudan oldin asosan bola tinch va xotirjam bo'lishi kerak. Uyqudan oldin kattalar bolalarga kiyimlarini saramjomlashga o'rgatadilar.

Maktab yoshidagi bola har ko'ni kamida 4 soat ochiq havoda bo'lishi shart. Sovuq kunlarda xona harakati $+18^{\circ}$ bo'lishi kerak. Kechki uyqu 11,5,12 soatga cho'zilishi mumkin. Haftani o'tishida bolani ishchanlik qobiliyati haraktayerini o'zgarishiga olib keladi. Seshanba kuni 6 yoshli bolalarda markaziy nerv sistemasi funksionnal darajasi yaxshi bo'ladi va ishchanlik qobiliyati juda baland ko'rsatkich bo'ladi.

Chorshanbadan shanbagacha bolalarda qisqa mashg'ulotlarda ham ishchanlik qobiliyati pasaya boshlaydi. Dushanba ertalabki vaqt ishchanlik qobiliyati past bo'ladi.

Stolni oyna oldiga shunday joylashtirish kerakki, yorug'lik chap tomondan tushsin.

Stol stulning uzunlik o'lchami.

Badaning bo'yi	Stol			Stul				Stol va stul orasidagi uzunlik
	Poldan uzunligi	Eni	Uzunligi	Poldan o'rindiqqacha bo'lgan balandlik	Chuqurligi	Eni	Suyanchiqda n	
35-99	43	45-50	24	24	21	49	24	19
100-109	47	45-50	27	27	23	49	26	20
110-109	52	45-50	32	32	27	49	29	20
120-129	57	45-50	27	27	27	49	38	22
130-139	62	45-50	27	27	27	49	31	24

Agar mashg'ulotda odatiy stol mavjud bo'lsa, u yog'ochdan tayyorlangan bo'lishi, qiyaligi 12 - 15 darajada bo'lishi kerak. Bunday stol o'tirishi va ko'zini tasviriy faoliyat bilan shug'ullanishida chorchashidan saqlaydi.

Kun tartibida bolani o'z to'lovi asosida o'yin va mashg'ulot uchun bo'sh vaqt ajratish kerak. Bo'sh vaqtda bolalar radio dastur eshitishlari mumkin va haftasiga 3 martadan ortiq bo'lmagan bolalar uchun televizion dasturlarni ko'rishlari mumkin.

Bola 5-6 yoshda 2000 kaloriya sutkada qabul qilishi kerak. Ovqatlanish 4 maxal, aniq bir vaqtda bo'lishi shart. Hayvon oqsilida va bolani ovqatlanishdagi oqsil umumiy tarkibini 60% ga to'g'ri keladi. 1 sutkada yog'dan foydalanish 11g o'simliklar yog'ini tashkil etadi. Asosiy energiya manbai -uglevodlardir. Uglevodlar non, kartoshkada mavjud. Bir sutkada qabul qilingan uglevod 60g toza shakar va 10 -15 g qandolat mahsulotiga to'g'ri keladi. Non ozodalik bilan to'g'ralgan, torelkalar chiroyli joylashtirilgan bo'lishi kerak, oshxonadagi barcha gigiyenik talablarni bajarilishi uni kun tartibini to'g'ri tashkil etilishi katta maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashni yengillashtiradi.

6 yoshli bolali taxminiy kun tartibi

Tartibli laxzalar	Vaqt
Uyqudan turish, ertalabki badantarbiya, yuvinish	8-00-8.45
Nonushta	8-45-9.15
Sayr	9-15-10-00
Mashg'ulot	10-00-11-00
Sayr, o'yin va ko'ngil ochish toza havoda	11-00-12.45
Tushlik va kundalik uyquga tayyorgarlik	12-45-13.00
Kunduzgi uyqu	13-00-15.00
Mashg'ulot	15.00-16.30
Sayr va toza havodagi o'yin	16.30-18-00
Tinch o'yin	18-00-20-00
Kechki uyquga tayyorgarlik, yuvinish, tishini tozalash	20-00-20-30
Uyqu	20-30

Burchak hosil qilgan holda bukilib, oyoq tagi polga yoki oyoq qo'yshchga tiralib turadi. Bolani yoza boshlashdan oldin qo'lini tirsagidan stol chetiga erkin qo'yib ketin yelkasini stolga chetidan taxminan 45° burchak hosil bo'ladigan qilib echib o'tirishga odatlantirish zarur.

Bunda o'ng qo'l daftar ustida turadi, chap qo'l esa daftarni uchidan salgina ushlab turadi. Ko'zdan kito yoki daftargacha bo'lgan oraliq 30-35 smga teng bo'lishi kerak. Daftarning pastki chap burchagi o'quvchining ko'krak o'rtasi qarshisiga to'g'ri keladigan qilib qo'yilishi kerak.

Uy vazifalarini bajarayotganda ham ish bilan dam olishni almashtirib turish: har bir vazifani bajarib bo'lgan 10-15 minut tanaffus qilish zarur.

Ota-onalarning bolaga, uning o'qishiga doim e'tibor berishlari, o'quv mabduuriyatlarini bajarishi bilan qiziqishlari, maktab va o'qituvchining o'quvchiga qo'yiladigan talab va qoidalariga maslahat va topshiriqlariga jiddiy munosabatda bo'lishlari bolani muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolani kun tartibiga rioya qilish malakalarini o'zlashtirishning samaradorligini oshiruvchi tajriba –sinov ishlari.

Maktabgacha yoshdagi bolani maktab talimiga tayyorlashda kun tartibiga qay darajada amal qilishlarini aniqlash hamda bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va rioya qilish usullarini ishlab chiqish maqsadida aniqlovchi va shakllantiruvchi tajriba –sinov ishlari olib borildi.

Aniqlovchi tajriba sinov ishining vazifalari:

1. Bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va ularga ota – onalar tomonidan rioya qilinishi pedagogik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash.

2. Maktabgacha yoshdagi bolani maktabga tayyorlashda kun tartibining mazmunini ishlab chiqish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va rioya qilish usullarini ishlab chiqish va tajribada tekshirish.

4. Ota –onalar hamda tarbiyachilar uchun bolani maktabga tayyorlashda kun tartibi va rioya qilish usullari bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqot ishida **Jizzax tuman**

№3 "Guncha" maktabgacha ta'lim muassasasi tayyorlov guruhiga qatnovchi 20 ta bolaning ota –onalari bilan izlanishlar olib boriladi. Ota –onalar uchun anketa savollari ishlab chiqildi va shu asosda ota –onalarning kun tartibiga rioya qilish darajalari aniqlandi.

Ota –onalar uchun anketa savollari

1. Farzandingiz uchun kun tartibi tuzib chiqilganmi?
2. Kun tartibini tuzishda qanday tavsiyalardan foydalangansiz?
3. Siz tuzgan kun tartibi bilan bog'chadan kun tartibi o'rtasida farq bormi
4. "Shanba va Yakshanba kunlai farzandingiz kun tartibiga rioya qiladimi?
5. Kun tartibiga rioya qilinmaganda bolangizda qanday o'zgarishlar bo'ladi.

6. Yuolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga rioya qilish ahamiyatli deb o'ylaysizmi?
7. Farzandingizni maktabga tayyorgarlik darajasini bilish qiziqib ko'rganmisiz.
8. Bolani maktabga tayyorlik darajasini aniqlovchi testlar, so'rovnomalarni bilasizmi?

Bolalar uchun anketa savollari.

1. Kun tartibi rioya qilish deganda nimani tushunasan?
2. Bir kunlik kun tartibini aytib bera olasanmi?
3. Ertalab badan tarbiya bilan shug'ullanasanmi?
4. Shanba va Yakshanba kunlari kun tartibiga amal qilasanmi?
5. maktabga borish va "o'quvchi" bo'lish uchun nimalarni bilish kerak db o'ylaysan?

Ota -onalardan berilgan savollarga quyidagicha javoblar olindi:

4 kishi 8 ta savoldan barchasiga qoniqarli javob berdi (20%) 6 kishi 8 ta savoldan 4 tasiga qoniqarli javob topa olishdi 30%, qolgan

ota –onalardan savollarga qoniqarli javob olinmadi (30%)

Ota –ona soni	Bilim darajasi		
	I	II	III
20 ta	50%	30%	20%

Tayyorlov guruhi bolalari bilan o'tkazilgan so'rovnmalardan ma'lum bo'ldiki, bolalar kun tartibi, unga rioya qilish usullari haqida ma'lumotga egadilar. Faqatgina bolalar oilada shanba va yakshanba kunlari kun tartibiga rioya qilmasliklari aniqlandi.

Bolalar soni	Bilim darajasi		
	I	II	III
20 ta	50%	30%	20%

Shakllantiruvchi tajriba –sinov ishining vazifalari:

1. Oilada bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga rioya qilishni izchillik tarzda olib borish;
2. Oilada bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga rioya qilish jarayonining mazmui

maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalariga muvofiq tarzda tanlash;

3. Oilada bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga rioya qilish usullarini to'g'ri tanlab foydalanish.

4. Oilada bolani kun tartibi ilmiy - nazariy va metodik jihatdan asosli tarzda tashkil etish va maktabga tayyorlash samaradorligi oshirish.

Shakllantiruvchi tajriba sinov ishining vazifalaridan kelib chiqqan holda ota -onalar uchun mashg'ulot ishlanmalari va tavsiyalar ishlab chiqildi. Oilada ota -onalar biz tavsiya qilgan ishlanmalardan foydalanishlari natijasida bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va bolani maktabga tayyorlashda katta natijalarga erishishlari mumkinligi isbotlandi.

Shakllantiruvchi tajriba -sinov yakunida ota -onalar bilan qayta so'rovnomalar o'tkazildi va ijobiy natijalarga erishildi.

Ota -ona soni	Bilim darajasi		
	I	II	III
20 ta	60%	20%	20%

Tajriba sinov ishlarimizni yakunida oilada ota-onalarda bolani maktabga tayyorlash omillari, bolani maktabga tayyorlik darajasini aniqlash usullari, bolani aniqlash usullari, bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va rioya qilish usullari haqida bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilindi.

XULOSA

Bolani maktab ta'limga tayyorlashda, uning sog'ligini mustahkamlashda ertalab ma'lum vaqtda o'rindan turish, ovqatlanish va uyquga yotishga aniq rioya qilsa, u qay darajada bo'lmasin asta-sekin o'z faoliyatini boshqarishga odatlanishi, bu uni kundalik va maktab kun tartibining asosiy qoidalariga osongina ko'rinishi aniqlanadi.

Bolaning kun tartibiga amal qilishi uchun asosan qat'iy nazorat lozimligi kun tartibini bajarish majburiylikiga va hech qanday

iltimoslar, ma'lum vaqtda ovqatlanmaslik hamda o'ynamaslikka sabab bo'la olmasligiga ko'nikishi lozimdir. Kun tartibida bola faoliyatining har xil turlarining almashinib tushunishi ta'minlash, bolaning har tomonlama kamol topishiga imkon berishi aniqlandi.

Tadqiqot ishimiz pedagogik muammo sifatida o'rganildi. Maktabgacha yoshdagi bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga rioya qilinmaslik sabablari: adabiyotlarni yetarli emasligiga, kun tartibiga rioya qilish mohiyatini tushunib yetmaslik. Tajriba -sinov ishlarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki,

sanoqli oilalardagina kun tartibiga amal qilinadi. Mashg'ulotlar va tavsiyalarimizni tartibli qo'llash natijasida oilada bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga rioya qilish usullaridan foydalanish zarurligi singdirildi.

Tajria sinov ishlarimizni yakunida oilada ota-onalarda bolani maktabga tayyorlash omillari, bolani maktabga tayyorlik darajasini aniqlash usullari bolani maktabga tayyorlashda kun tartibiga qo'yilgan talablar va rioya qilish usullari haqida bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov "Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" Toshkent – "O'zbekiston" – 2009y
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent "Ma'naviyat" 2008 y
3. Asosiy vazifamiz –Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yana yuksaltirishdir" Toshkent "O'zbekiston" 2010 yi
4. I.A.Karimov "Mamlakatni madernisiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida" .O'zbekiston NMIU 2008y
5. Karimov I.A. "Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T., Sharq 1997y
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni "Marifat" gazetasi. 1997 yil 1 oktyabr
7. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim –tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. T., O'z.PFITI, 2000y. Tuzuvchilar M.Rasulova, X.Abduraxmonova va boshqalar.
8. Bolalarni maktabga o'qishga tayyorlash. T.: O'z.PFITI. 1997y

9. Maktabgacha ta'lim davlat standarti O'z.PFITI.,
T.: 1995y
10. "Bolajon" tayanch dasturi. T.: 2010 y
11. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limga
qo'yilgan Davlat talblari. T.: 2000y
12. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.
O'qit.:T. -1993y
13. O.U.Xasanboyeva. Oila pedagogikasi. T., 2007y
14. Maktabgacha ta'lim jurnali. 2006y 3 -soni
15. Ye.T.Nedopekina, A.V.Nikolskaya. Maktab
bo'sag'asida. O'qituvchi. T.: 1971y
16. A.V.Semenova. Uzbekskiyenaradnyepodvijnyie
igry. T.: 1995y
17. M.Rasulova, D.Abdullayeva. Bolalarni maktabga
psixologik tayyorgarligi. T.:2004y
18. M.Daminov, T.Adambekova. O'yin mashg'ulotlari.
O'qituvchi. T.: 1993y
19. O'.Egamov, Z.Bobomurodov. 80 g'ozlar bilan
ishlash. T.: 1993y
20. N.U.Bikbayev, X.I.Qosimova, Z.Ibragimova.
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik
tasavvurlarni tashkillashtirish. O'qituvchi. T.:
1995y

- 21.X.Axmedova va boshqa... Bolangiz maktabga tayyormi? T.: 2000y
- 22.R.K.Jo'rayev. MTM lar uchun kuzatuv daftari. T.: 1999y
- 23.Bolalarni maktabga tayyorlash daftari. M.Sh.Rasulova., G.Q.Jalolova. tarjimasini. T.: O'zPFITI. 1995y

Ota –onalarga murojaat

Qimmatli ota –onalar!

1 sentyabr –sizning hayotingizda katta va quvonchli voqyea –bolangiz maktabga kiradi. Bolangizga ko’proq e’tibr berishingizni tavsiya qilamiz.

Bolada barqaror diqqat hosil qiling, bo’sh vaqtlarda bolalarga eratklar, kichik –kichik hikoyalar o’qib bering.

Bolada unga berilgan savolni tinglay bilish, kattalarning hikoyasini bo’lmasdan, 10 -15 minut davomida eshita bilish odatini tarbiyalang.

Bolalarni o’z –o’ziga xizmat ko’rsatishga, o’zlarining o’yinchoqlari, buyumlarini ozoda va tartibli saqlashga odatlantiring.

Ota –onalar uchun yo‘l –yo‘riqlar 1 –sinf o‘quvchilarida o‘quv yili boshida qo‘yilagilar bo‘lishi kerak:

1. Jild yoki partfel
2. Katak va ikki chiziqli daftar (10 donadan)
3. Daftar uchun papka
4. Yassa qalamdan
5. Oddiy qalam
6. Ruchka
7. Rangi qalamlar
8. Rasm daftar
9. Sanoq cho‘p
10. Chizg‘ich
11. Uchirg‘ich
12. Kitob uchun xatjo‘p
13. Plastilin
14. Jismoniy tarbiya mashg‘uloti uchun forma: oq mayka va qora tursi, noski,

tagi rezina shipak – o'g'il bolalar uchun;
oq futbolka qora kalta shalvir, paski,
tagi rezinka shipik –qizlar uchun.

2 – ilova

Bolalar bog'chasiga qatnamaydigan olti yoshli bolalarni maktabda o'qishga tayyorlov mashg'ulotlarining namunavi rejasi

Bola hayotining 7 yillida kun tartibida opa yili mashg'uloti hisoblash, tasviriy faoliyat, loy ishi, qurish –yasash olib boriladi. Maktabgacha pedagog moslaxati ota –onalarga bolalari bilan o'tadigan mashg'ulotlar tarkibini aniqlashga yordam beradi. Bunday mashg'ulotlar 1 –sinf ishini o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Amaliyotda tekshirib ko'rilgan va o'zini yoqlagan quyidagi mashg'ulotni o'yish varianti va uning davomiyligi: -birinchi davr 3 ta mashg'ulot, 20 minutda ular orasidagi 10 minutni tanaffus bilan- ikkinchi davr 3 ta mashg'ulot 25 manutdan, ular orasidagi 10

minutli tanaffus. Bu davrlarni 1,5 – 2 oyga uzaytirish mumkin. Olimlarni isbotlashicha, 6 yoshli bolalarda faol diqqati davomiyligi 15 - 20 minut mashg'ulotdek bolalar charchaydi, ularning mehnat qobiliyati pasayai va 10 minut o'tmaguncha ham tiklanmaydi, shunig uchun ham 2 ta mashg'ulotni savodxonlik va hisobni ketma –ket berish maqsadga muvofiq emas.

Yaxshisi 2 –mashg'ulotni harakatli o'yinlar bilan o'tkazish kerak. Sayrdan keyin tushlik va uyqu oralig'ida yana bitta mashg'ulot o'tkazsa. 3 ta mashg'ulotni sekin –astalik bilan o'tkazish kerak.